

TIRIK EKANMAN, DEMAK MA'SULMAN

Ashirqulova Kamola

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universitetining

tarjima nazariyasi va amaliyoti

fakultetining 4-bosqich talabasi

arslonovnak@gmail.com

Annotatsiya: Absurdizm va Ekzistensializm tushunchalarining eng yorqin namunalari hisoblangan Albert Kamyuning “Begona” va Samuel Bekketning “Godoni kutib” asari ostida bir nechta tahlillar qilingan. Bu ikkala asar orqali ushbu maqolada insonning kutuvi bevosita hayotdagi absurd tabiat anchagina keng ochib berilgan. Hayotdan maqsadsiz, hayotning mazmunidan bexabar yashayotgan Merso obrazi va umidini uzmasdan Godo nomli obrazni kutayotgan Vladimir va Estragon qahramonlari orqali kutgan ishi sodir bo'lgandan so'ng, lekin hayotida nima sodir bo'lishidan bexabar ekanligi va nima uchun yashayotganligini his qilmayotgan insonlar haqida so'z yuritilgan. Mazkur maqolada shu obrazlar tahlil qilinarkan, real hayotda qanchalik ahamiyatli ekanligi to'g'risida biroz o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: absurdizm, ekzistensializm, absurd teatri, obraz, hayot, kutuv, umidsizlik, ma'no-mazmun.

Absurd dramasiining eng yorqin vakillaridan biri bu Samuel Bekketning “Godoni kutish” asaridir. Asarda ikki asosiy obraz — Vladimir (Didi) va Estragon (Gogo) — bir daraxt ostida Godo ismli noma'lum shaxsni intiqlik bilan kutishadi, biroq u hech qachon ko'rinmaydi. Ularning kutish jarayoni, vaqtning o'tishi, umidsizlik va maqsadsiz yashash holatlari asarning markaziy g'oyalarini tashkil etadi. Keling avval absurdizm tushunchasiga to'xtalamiz.

Absurdizm — bu inson hayoti hech qanday mohiyatga ega emas, degan qarashlar tizimidir. “Absurd” so'zining lug'aviy talqini esa “mantiqsiz”, “ongga zid”,

“kulgili darajada nomaqbul” degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu falsafiy yo'nalish XIX asrda mashhur mutafakkir Syoren Kerkegor tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u hayotning maqsadsizligi haqida shunday fikr bildirgan: “Hayotning hech qanday mazmuni yo'qligini eng aniq dalil — unga ma'no berishga qaratilgan bahslarning o'zidir”. Shu bilan bir qatorda adabiyotshunos olim, tarjimon Uzoq Jo'raqulov absurd tushunchasi haqida: “Absurd mohiyatida fitratan ma'ni va mantiq asosida hayot kechirishga moslab yaratilgan insonning muayyan zamon oralig'ida yakun topguvchi abstarkt xulosalari yotadi. Bir so'z bilan aytganda, hayotning ma'nisizligi, mantiqsizligi, yashashga arzimastligi haqidagi kechinma, tuyg'u yoki fikr-qarashlar absurddir.”, - degan fikrlarni aytadi. Keyinchalik, fransuz yozuvchisi Albert Kamyu ushbu g'oyalarni o'z ijodi orqali davom ettirib, absurdizm tushunchasini yanada ravshanlashtirgan. XIX asr o'rtalarida Kamyu, Sartr, Ioneskular qatorida irlandiyalik adib Samuel Bekket “Godoni kutib” tragikomediyasi bilan absurd teatrini boshlab berdi. Asar dastlab 1953-yilda Parij sahnalarida qo'yiladi. Shundan so'ng butun Yevropa bo'ylab sahnalashtiriladi. Uni kimdir tushunadi, kimdir yo'q. Shu tariqa aksariyat tomoshabinlar uchun bema'ni bo'lib tuyulgan asar o'tgan asr o'rtalaridan to bugunga qadar turli tanqidlarga, bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

Xo'sh, Godo kim? Nega uni kutishadi? Nega bu insonlar uni kutishga mahkum? Pyesaga nom bo'lgan bu shaxs asarda qanday mavqega ega?

Gap shundaki, Godo — hech kim. U sahnada hech qachon paydo bo'lmaydi. Pyesa yakunlanganda ham u ko'rinmaydi. Uni hech kim ko'rmagan, lekin baribir uning mavjudligiga ishoniladi. Godo — mavhumlik, xayol, yolg'on tasavvur. Ya'ni, u real emas, lekin bor deb ishoniladi. Asar Vladimir va Estragon ismli ikki bosh qahramonning noma'lum bir hududda yig'ilishidan boshlanadi. Ularning asosiy istagi — Godo bilan suhbatlashish. Lekin bu suhbat nimadan iborat bo'lishi haqida nafaqat o'quvchi, balki ularning o'zlari ham aniq tasavvurga ega emas. Shunga qaramay, ular ma'lum vaqtdan beri (balki butun umrlari davomida) Godoning kelishini kutishmoqda. Kecha kutishgan, bugun kutishmoqda, ertaga ham keladi degan umidda kutishda davom etishadi. Ularda hali ham ishonch bor. Ba'zan bu ishonch so'nadi, shunda ular

o‘zlarini daraxtga osib joniga qasd qilishni ham o‘ylashadi. Ammo arqon topilmaydi, daraxt esa shu qadar mo‘rtki, unga osilish ham xavfli. Asarda ularning yoshi oltmish yettidan oshgan deb taxmin qilinadi. Balki ular butun umr Godoning kelishini kutgandir? Biroq bitta narsa aniq — Godo kelgach, ularni qandaydir holatdan xalos etishi kerak. Ammo qanday holatdan? Buni na Didi, na Gogo tushuntirib bera oladi. Ammo masala shundaki, faqatgina sahnadagi obrazlar emas, o‘quvchi yoki tomoshabin ham bu kutuvga sherik bo‘ladi. "Kim o‘zi bu Godo?" degan savol har kimni o‘yga toldiradi. Ehtimol, u Pozzo? Balki Lucky? Yoki har gal xabar yetkazadigan bolakay? Biroq bu savollarning barchasi javobsiz qoladi... "Endi biz yolg‘iz emasmiz, tunni yolg‘izlikda o‘tkazmaymiz, endi Godoni yolg‘iz kutmaymiz, endi... hech kimni kutmaymiz. Biz butun kun o‘zimiz bilan olishib charchadik. Bu endi qaytarilmaydi. Bizning ertamiz allaqachon boshlanib ulgurgan..." XX asr adabiy tafakkurida tub burilish yasagan va "absurd teatri" degan yangi oqimni boshlab bergan Samuel Bekket san‘at maydoniga tamoman yangicha ruh olib kirdi. Bekket asarlarini tomosha qilgan kishi uning yurakdan ko‘ra, ongga murojaat qilganini anglaydi. U tafakkur sahnasini yaratdi. Biroq, buni tushunishga hamma ham tayyor emasdi, shu sababdan ba‘zilar Bekket pyesalarini oddiy ertakka yo‘ydi. Aslida esa u o‘z asarlari orqali XX asr madaniyatiga yangi mohiyat olib kirdi. Bekketning asarlari 1950-yillarning boshlaridayoq jahon sahnalarini zabt etdi, muhokamalar markaziga aylandi. Biroq sobiq Ittifoq hududida bu g‘oyalar 1980-yillargacha taqiqlangan, muallifning o‘zi esa "ideologik jihatdan zararli" deb tan olingan edi. Keyinroq esa uni G‘arb hayotining chirigan, tuban manzarasi sifatida talqin qilishdi. Biroq, haqiqatga yaqin yondashuv — Bekket asarlarini zamonaviy insoniyat ruhiyatining timsoli deb tan olishdir. U ilgari surgan muammolarni insoniyat oradan o‘nlab yillar o‘tib boshdan kechira boshladi. Bu esa Bekketning inson ruhiyatini chuqur tahlil eta olganining isbotidir. *Godoni kutib* nomli sahna asari yozuvchining dunyo miqyosidagi shuhratini ta‘minladi. Bu asar tahlili bo‘yicha hamma har xil nuqaty nazardan kelib chiqib tahlil qilishadi, lekin hozirgacha aynan bir qarorga kelgani yo‘q. Ba‘zilar "Asarda hech qanday an‘anaviy voqea yoki dramatik burilish yo‘q — ikki odam suhbatlashadi, ularga yana ikki shaxs

qo'shiladi, va ular bir shaxsni — Godoni kutishadi. Bu shaxs kimligi noma'lum, u haqida hech qanday aniq ma'lumot yo'q, lekin baribir hamma uning tez orada kelishiga ishonadi." — deya talqin qilishadi. Aslida Bekket bu asari orqali G'arb kishisining ichki dunyosini ochib beradi. U shuni ko'rsatadiki, inson hayoti — hech qachon paydo bo'lmaydigan, lekin kutilgan Godoga o'xshaydi. Inson o'zi nimani intiqlik bilan kutayotganini anglab yetmaydi. Hayot esa aynan shunday — sababsiz intilishlar, soxta umidlar, bekor kutuv bilan o'tadi. Bu tahlillar natijasida Godo — pyesada umr ramzi, insonning najot kutishidagi samarasizligi, ya'ni taqdirga mahkumligi obrazi deb ta'riflanadi. Boshqa adabiyotchilarning talqini bo'yicha esa "Asarda hech narsa sodir bo'lmaydi. Voqea yo'q. Syujet yo'q. Godoni kutib-kutib, yana kutish uchun tarqalishadi. Bu abadiy mahkumlik («Godo» so'zi ingliz tilidagi «xudo» so'ziga ma'nodosh va shakldosh, Bekket bu yerda XX asrning mustabid tuzumi insonning jismi tugul uning xayoli, fikri, aqli, kechinmalariga ham kishan solgan, uni ham mafkurasiga qul qilib olgan, inkor qilgan xudoning o'rniga mustabidning o'zi chiqib o'tiribdi demoqchi bo'lgandir? Bu asar timsolini hali-hanuz sharhlashyapti, hali-hanuz bir to'xtamga kelingani yo'q, hali-hanuz Godoni kutishganday bu asardan ma'no izlashyapti, insoniyat haligacha Godoning kimligini aniqlagani va xulosa chiqargani yo'q..." kabi xulosalarga kelishgan. Bu asar bo'yicha ko'plab tahlillarni o'qib chiqqan holda o'zim shunday xulosa chiqargan bo'lardimki, Bu asarda Godo obrazi yo'q. Hattoki, usha Godoni kutayotgan obrazlar ham aslida kimni? , nima maqsadda? kutayotganini ham aniq bilishmaydi. Inson tug'ilibdiki, oldiga maqsad qo'yib, shu maqsad bo'yicha harakat qilishadi. Lekin bu asarda to'g'ri ularning maqsadi Godoni kutish, lekin u kelgandan keyin ularning hayotiga qanday ta'sir qilishi haqida, nimani o'zgartishi haqida ham bilishmaydi. Ular behudaga vaqtini bekorga sarflab usha obrazni kutish bilan band. Hayotda ham shunday insonlar borki, vaqtini behudaga sarflab harakatsiz, lekin hayoti hali yaxshi bo'lishiga ishonib kun kechirishadi. Hayot bu juda qisqa vaqtdir. Bu qisqa vaqtda kutish kerak emasligini kech anglab yetishi mumkin. Asarda bu qahramonlar 2 marta bolakay kelib ketishiga qaramasdan, ya'ni "U kelmaydi" degan javobni aytishiga qaramasdan yana kutishda davom etishadi.

Ekzistensializm — mavjudlik falsafasi namoyondasi bo'lmish Albert Kamyu o'z tengqurlari, hamkasblaridan fikrlari, dunyoqarashi, jarayonlarga noodatiy yondashuvi bilan ajralib turar edi. U egoist ham — oliy irqli vakili ham emasdi. U absurd tushunchasini o'z esselarida o'zgacha kashf qildi, o'ziga xos jonlantirdi. Absurdlik — insonning baxt-saodatga yetish istagi va u yashayotgan dunyo va haqiqiy dunyo o'rtasidagi tubsizlik. Absurdlikning ikkinchi bosqichida: inson nafaqat bema'ni olamni qabul qilmasligi, balki unga qarshi "isyon" qilishi kerak. Bu isyon siyosiy emas, balki an'anaviy qadriyatlar uchun, insonning o'zi uchun bo'lmog'i kerak deya ta'rifladi. Aslida-chi? Absurdlik, g'arb adabiyotidagi absurdlik qanday edi? Absurd tarafdorlarining fikricha, inson o'zining nima uchun yashayotganligini ham anglab yetmaydi. Anglashga intilish esa ekzistensializmning mohiyatini tashkil etadi. Absurdda garchi yashash ma'nisiz bo'lsa ham umid bor, odam nimanidir kutib yashaydi. Bu ma'nisiz hayotning aldamchi jilolariga uchib, tarkidunyo qilish yoki o'zini o'zi o'ldirish ham absurdga ziddir. Albert Kamyuning "Begona" asari ekzistensializm g'oyalarining yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi. Bu asarda bosh qahramon — Merso ismli inson haqida hikoya qilinadi. Asarning nomi ham bejiz emas — Merso jamiyatdagi umumiy qadriyatlar va me'yorlarga bo'ysunmaydigan, o'z hayotini o'zicha anglaydigan shaxs sifatida tasvirlanadi. U boshqalarning fikri bilan yashamaydi, o'z dunyoqarashiga ega. Aynan shu jihati tufayli, atrofdagilar uchun u begona bo'lib tuyuladi. Merso onasining dafn marosimida yig'lamagan — bu esa uni odamlar ko'zida sovuqqon va rahmsiz qilib ko'rsatgan. Aslida esa, u his-tuyg'ularini soxtalashtirishni istamagan. Uning uchun jamiyat yaratgan, sun'iy qadriyatlar muhim emas. Ammo bu — u hissiz degani emas. U yuragidagi kechinmalarni ko'z-ko'z qilishni keraksiz deb biladi.

Eng e'tiborga loyiq jihati shundaki, sud jarayonida Mersoning qilgan jinoyatidan ko'ra, onasining dafnida ko'z yosh to'kmagani ko'proq muhokama qilinadi. Go'yoki u "yashayotganligi" uchun jazolanadi. Merso o'z holicha yashashni tanlagan, atrofdagi me'yorlarga ko'r-ko'rona bo'ysunmagan shaxsdir. Kamyuning ushbu asaridagi asosiy g'oya — har bir insonni u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish kerakligi. Bu

nuqtai nazar, ekzistensializmning asosiy tamoyillaridan biridir. Qolaversa, Kamyu adabiyot yo‘nalishida “Nobel” mukofotini olgan, uning “Begona” asari esa *Le Monde* tomonidan tuzilgan “Asrning eng yaxshi 100 kitobi” ro‘yxatida birinchi o‘rinda turadi.

Haqiqatan ham inson — o‘zi qanday bo‘lsa, shunday bo‘lishini rad etadigan yagona mavjudotdir. Har birimiz qachondir yolg‘on gapirganmiz, (yolg‘on so‘zlamaganman demang, odam farishta bo‘lib tug‘ilishi mumkin, ammo o‘lguniga qadar shu holida yashamaydi. Ba’zida yo‘lini shunday shaytonlar kesib o‘tadiki, qanday qilib gunohga botib qolganini sezmay qoladi) qachondir niqob kiyganmiz, hech bo‘lmasa qachondir ichimizdagi kechinmalarni tashqariga chiqarishni istamaganmiz. Shu bilan birga adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov shunday deganlar: “Insonning absurdga bo‘lgan “ehtiyoji”, moyilligi o‘zgarmas qiymatga ega. Ya’ni, absurd tuyg‘u foizi bundan milliard yil ilgari yashagan odamda qancha bo‘lgan bo‘lsa, bugungi zamonaviy odamda ham ortiq emas”. Shu sababli bu tuyg‘u insonning ajralmas bir bo‘lagi desak, adashmaymiz. Merso — biz bilgan, biroq tan olishni istamaydigan haqiqiy iqrorimiz. Men ushbu asarni o‘qiganimda, avvalo, Mersodan juda nafratlangan edim, asar oxiriga kelib esa fikrim 100 % emas, lekin 40 % larga o‘zgardi. Negaki, onasining yoshini bilmaydigan farzand qanday farzand ekan? o‘zbeklarda “Onang tentak bo‘lsa bog‘lab boq” degan maqol bor, nima bo‘lishidan qat’iy nazar u onasini o‘zi tarbiyalab boqishi kerak edi. To‘g‘ri vaziyati ko‘tarmagan bo‘lishi mumkin, lekin onasini duosini olgan farzand hech qachon kam bo‘lmaydi, chunki Jannat onalar oyog‘i ostida deb bejiz aytilmagan. Alloh har bir bandaning rizqini berganidek, o‘sha Merso bilan onasining ham qora qozoni qaynar edi. Shunday xulosalar bilan o‘qib keldim asar oxirigacha yana ta’sirlangan joyim shu bo‘ldiki, hattoki onasini janozasida hattoki ko‘ziga yosh ham olmagan bo‘ldi. Tirik jonmiz kimdir vafot etsa, qandaydir bir tuyg‘u baribir ko‘zimizni yoshlatishi mumkin. To‘g‘ri hammamiz bu hayotga mehmonmiz, bir kuni hammamiz o‘lamiz, lekin qachon va qaysi paytdaligini bilmaymiz shuning uchun to‘satdan vafot etgan insonni eshitib, ko‘nglimiz ranjishi turgan gap. Ayniqsa u ota- onamiz haqida bo‘ladigan bo‘lsa, u onasining o‘limini eshitib bunaqa tuyg‘ularga berilmagani meni anchagina ranjitgan edi. Merso onasidan ancha uzoqda yurgan onda

sonda onasining holidan xabar olgan yoki-da yo‘q, shunday bo‘lishiga qaramasdan o‘sha onaning farzandi edi. Hattoki, oxirida uni yuzini ko‘rmasligi ham ancha ajablanarli va ta’sirli qilib ifodalangan edi. Endi xulosalarimga yana boshqa bir tomondan qaraydigan bo‘lsak, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu hayotda hamma yolg‘onchi. Odamlar birovlarini aldagani yetmaganidek, bu o‘tkinchi hayotda o‘zini aldab yashashi bir muncha mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Merso qisman bizning ichimizda haqiqatni tan olgan qahramon desak ham bo‘ladi. U odamlar u deydi bu deydi degan gaplar bilan yashamaydigan qahramon. Hattoki usha onasini janozasida, qamoqxonada, so‘roq qilinayotgan paytda ham o‘zini yo‘qotmagan holda har bir savolga ochiqdan – ochiq javob berib o‘zini borligicha ko‘rsatadigan obraz qilib olingan. To‘g‘ri, hayotda inson o‘zini borligicha namoyon qilishi kerak, lekin tarozining ikkita pallasi bo‘lganidek, har doim ham bu qo‘l keladi degani emas. “Godoni kutish” asaridagi obrazlarni esa unchalik yoqtirmadim. Lekin bir tomonlama xarakati menga juda yoqdi. “Chol va dengiz” asarini o‘qiganimda ham shu narsa menga yoqqan edi, ya’ni inson tirik ekan hech qachon umidsizlikka tushmasligi kerak. Ular shuncha Godoni kutishiga qaramasdan, u kelmasligini eshitsa ham uni qayta kutishga bo‘lgan umididan voz kechmadi. Shu tomonlama menga juda yoqdi. Hech bo‘lmaganda ular Godoni kutish uchun ham o‘sha joyga kelib ketish uchun harakat qilib umidini uzishmadiku....

Boshqa tomondan esa ular ma’no mazmunsiz hayotini anglamasdan nega bu hayotda yashayotganini anglamasdan faqatgina Godoni kutish bilan vaqtini behudaga sarflab o‘tkazgani edi. Inson tirik ekan u o‘ziga va uni atrofidagi insonlarga albatta ma’sul. Hattoki hadislarda ham keltiriladiki, kimdir sizga ishonib vazifasini topshirsa, siz uni bajarib bo‘lganizdan keyin ham u insonga qandaydir bog‘landizmi keyingi vazifalarda ham siz unga qandaydir jihatdan bog‘liq bo‘lasiz ya’ni ma’sulsiz.

Xulosa

Ushbu asarni ikkalasini bog‘liqligi shundaki, Absurdizm tushunchasi ikkala asarni tubi tubida hukmronlik qiladi. Har ikkala asar ham inson hayotining maqsadsizligi, mantiqsizligi va befarqligini tasvirlaydi: "Godoni kutish" da Vladimir

va Estragon Godo degan shaxsni bekor kutishadi. Godo kelmaydi. Bu kutuv – hayotning bevosita absurd tabiatini bildiradi. “Begona”da bosh qahramon Merso hayotning har qanday mazmunidan bexabar va befarq yashaydi. Onasining o‘limiga beparvoligi, tasodifiy qotillik, va o‘z jazosi oldidagi loqaydligi — hayotga absurd munosabatini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beckett, S. Waiting for Godot. London: Faber and Faber, 2006. 109-bet.
2. Beckett, S. Godotni kutib. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2011. 112-bet.
3. Camus, A. The Stranger. New York: Vintage Books, 1988. 123-bet.
4. Camus, A. Begona. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2005. 120-bet.
5. Esslin, M. The Theatre of the Absurd. New York: Vintage Books, 2004. 480-bet.
6. Sartre, J.-P. Existentialism Is a Humanism. New Haven: Yale University Press, 2007. 96-bet.
7. Bloom, H. Samuel Beckett’s Waiting for Godot. New York: Bloom’s Literary Criticism, 2009. 192-bet.
8. Jo‘raqulov, U. Hududsiz jilva. Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018. 8–15-betlar.